

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53408-4.01

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340800 - "Soliqlar va
soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Almardonov M.,
k.o'q. Amanov A.

Taqrizchilar: dots. Baxromov T.,
dots. Qo'zieva N.

Oliy ta'limning davlat standartlariga asosan "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik fanlari sifatida "Soliqlar va soliqqa tortish" fani o'qitiladi. Ushbu fanni o'qitish jarayonida yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan solikli va soliqsiz to'lovlarga tavsif, shu jumladan solikli va soliqsiz to'lovlarni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi kabi mavzular yoritilib beriladi. Xususan yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan solikli va soliqsiz to'lovlarni hisoblash, bilan hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartiblari amaliyot bog'langan holda chuqur o'rganiladi.

В соответствии с государственными стандартами Высшего образования, дисциплина "Налоги и налогообложение" является профилирующим предметом направления "Налоги и налогообложение". В процессе преподавания данной дисциплины раскрываются такие темы как, характеристика уплаты юридическими и физическими лицами налоговых и неналоговых платежей, в том числе исчисление и уплата налоговых и неналоговых платежей. В сущности, исчисление, предоставление расчетов и способы уплаты юридическими и физическими лицами налоговых и неналоговых платежей изучается в тесной связи с практической деятельностью на основе практики. Данная программа одобрена и рекомендована Министерством Высшего и средне специального образования Республики Узбекистан.

Subject of "taxes and taxation" is thought as specialized subjects of "taxes and taxation" based on High education's state standards. In process of teaching this subject, character of taxes and nontax payments of juridical and corporal persons, calculation of taxes and nontax payments and orders of paying to budget are lightened. Especially calculation of taxes and nontax payments of juridical and corporal persons, presentation of calculations and orders of payments are learned practically and deeply. This example program is approved and confirmed by Ministry of High and Secondary Education of Republic of Uzbekistan.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dasturlar to'plami O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi

Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi

"Soliqlar va soliqqa tortish" fanini o'qitishdan maqsad, ta'lim olayotgan talabalarga O'zbekiston Respublikasining soliq va soliqqa tortish tizimlari bilan tanishtirib, ularning iqtisodiy bilimlarini chuqurlashtirish bilan bir qatorda olayotgan bilimlarini respublika iqtisodiyotida amaliy qo'llay olish. Fan oldiga qo'yilgan vazifalar asosan talabalarni amaldagi har bir soliq turi bilan tanishtirib, soliq ob'ekti, sub'ekti, soliqni hisoblash yo'llarini, uni undirish usullarini, imtiyozlar, soliq organlariga hisob-kitoblarni taqdim etish tartibini, hisoblanayotgan soliqlarni buxgalteriya hisobida aks ettirilishni o'rgatishdan iboratdir. "Soliqlar va soliqqa tortish" fani "Soliq nazariyasi", "Moliya nazariyasi", "Iqtisodiy nazariya" kabi qator fanlar bilan uzviy bog'langan.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar

"Soliq va soliqqa tortish" fani bo'yicha kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish "Soliq va soliqqa tortish" fanidan soliqlar va soliqqa tortish bakalavriat yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirish; seminar va amaliy mashg'ulotlarda munozaralarda o'tkaziladigan talabalarning faol ishtiroki ta'minlanishi talab etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha bajariladigan ishlarining minimal miqdoriga talablar

Talabalar o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzularidan tegishli tartibda tanlab olib, bu mavzular bo'yicha referatlar va mustaqil ishlar tayyorlashlari hamda amaliy mashg'ulotni olib boruvchi o'qituvchi nazoratida tayyorlagan ishlari yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tishlari lozim. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularidagi yulduzcha bilan ajratib ko'rsatilgan kichik mavzular bo'yicha talabalarning to'liq o'zlashtirishlarini belgilab beradi.

Auditoriya mashg'ulotlari turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 333, shu jumladan 110-ma'ruza, 112-amaliy, 111 mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. "Soliq va soliqqa tortish" fani bo'yicha olingan bilimlar talabalarni keyinchalik amaliy faoliyatda uchraydigan muammolarni echishda hamda zamonaviy iqtisodiyotga doir adabiyotlarni o'rganib, kasbiy malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

"Soliq va soliqqa tortish" fanidan talabalarning bilimini baholash turt marta oraliq, to'rt marta joriy hamda yakuniy nazorat shakllarida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat yozma ish shaklida tashkil etiladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

"Soliq va soliqqa tortish" fanini o'qitishda kompyuterlardan, audio va video jihozlardan, diproektor va kodoskoplardan shuningdek, dars davomida turli jadvallar, hamda slaydlardan foydalanish talab etiladi.

2. FAN DASTURI

"Soliqlar va soliqqa tortish" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari mavzusi

"Soliqlar va soliqqa tortish" fanining predmeti, mazmuni va o'rganish usullari

"Soliqlar va soliqqa tortish" fanining maqsadi, vazifalari hamda talabalarni harakatdagi soliqqa tortish tizimi bilan atroflicha tanishtirish. *Fanning asosiy maqsadi talabalarda yo'nalishi, ya'ni amaliyotdagi soliq turlari va ularning o'ziga xos jihatlari bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.*

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliqlar va soliqsiz to'lovlariga umumiy tavsifnoma

Respublikamiz soliqqa tortish tizimida amalda bo'lgan solikli va soliqsiz to'lovlar, ularning amal qilish doirasi *Yuridik shaxslarning solikli va soliqsiz to'lovlari. Jismoniy shaxslarning solikli va soliqsiz to'lovlari.*

Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimining tamoyillari

Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxs tushunchasi. Soliq to'lovchilarni aniqlash asoslari. *Hisoblangan soliqlar va yig'imlar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi va mas'uliyati.* Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxs tushunchasi. Soliqqa tortish tizimida yuridik va jismoniy shaxslarga qo'llaniladigan tamoyillar. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi tamoyillarning o'xshash va farqli jihatlari.

Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda (daromad) solig'i

Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda (daromad) solig'ining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va uning byudjet daromadlarida tutgan o'rni.

Soliqlarni to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti, soliq stavkalari va soliqqa tortish bazasini shakllantirish, soliqni hisoblash va to'lash muddatlari. Soliqdan beriladigan

imtiyozlar va ularni bekor qilish tartibi. Soliqni buxgalteriya hisobida rasmiylashtirish va boshqa mavjud muammolar.

Soddalashtirilgan soliq tizimi (Yagona soliq)

Soddalashtirilgan soliq tizimi tushunchasi, uning iqtisodiy ahamiyati. *Yagona soliqning soliq tizimiga tatbiq etilishi va amal qilish jarayoni*. Soliq to'lovchilarining tarkibi, soliq ob'ekti, stavkalari, soliqni hisoblash uslubiyati. Soliqni to'lash muddatlari. Soliqni joriy etish afzalliklari. Buxgalteriya hisobida aks ettirish va mavjud muammolar.

Yalpi tushumdan va belgilangan daromaddan yagona soliq

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning xususiyatlari. *Yalpi tushumdan yagona soliqning soliq tizimiga joriy etilishi va zarurligi*. *Yalpi tushumdan yagona soliqning ob'ekti, soliq stavkalari, hisoblash va to'lash muddatlari*.

Belgilangan daromaddan yagona soliqning sub'ektlari tarkibi, soliq ob'ektini aniqlash uslubiyati. Soliq stavkalari hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibi.

Qo'shilgan qiymat solig'i

Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq tizimiga joriy qilinishi hamda iqtisodiy ahamiyati. *Qo'shilgan qiymat solig'ining shakllanish va rivojlanish bosqichlari*. *Soliq to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti, soliq stavkalari, to'lash muddatlari, soliq bo'yicha imtiyozlar*. Soliqni hisoblash va byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlash usuli. Schyot fakturani to'ldirish tartibi va soliqni buxgalteriya hisobida rasmiylashtirish. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha mavjud muammolar.

Aktsiz solig'i

Aktsiz solig'ining mohiyati va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aktsiz solig'i. *Soliqni to'lovchilar tarkibi, soliqqa tortish ob'ekti, soliq stavkalari, to'lash muddatlari, soliq bo'yicha imtiyozlar va hisoblash tartibi*. Aktsiz solig'ini hisobga olish va buxgalteriyada rasmiylashtirish.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ini joriy etish sabablari. Mol-mulk solig'ining shakllanish jarayoni va tarixiy bosqichlari. Mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati. Soliqqa tortish maqsadida mol-mulk tushunchasi. *Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini to'lovchilari sifatida*. *Yuridik shaxslardan mol-mulk solig'ini undirishda mol-mulkning yillik o'rtacha qoldiq qiymatini aniqlash tartibi*. Korxonalarda mol-mulkni qayta baholanishi va uning soliq ob'ektiga ta'siri. Mol-mulk solig'i stavkasi. Eksportni rag'batlantirishda mol-mulk solig'i stavkasining tabaqalanishi. O'z vaqtida

o'rnatilmagan asosiy vositalar uchun oshirilgan soliq stavkasi va uni qo'llash tartibi. Mol-mulk solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar mezonlari va guruhlanishi. Mol-mulk solig'ini hisoblash tartibi. Mol-mulk solig'ini byudjetga o'tkazish tartibi va buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi. Mol-mulk solig'ida asosiy muammolar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i

Jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining to'lovchilari. *Jismoniy shaxslar mol-mulkining turlari va soliq ob'ekti. Jismoniy shaxslar mol-mulkining qayta baholanishi. Mol-mulk solig'ining stavkalari va uning tabaqalashtirilishi.* Mol-mulk solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar. Mol-mulk turlari bo'yicha soliq hisoblashning xususiyatlari. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirish tartibi. Yuridik va jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirishning farqlari. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirishning asosiy muammolari.

Yuridik shaxslardan undiriladigan er solig'i

Soliq tizimiga er solig'ini joriy etishning asosiy sabablari. Er solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning tarixiy shakllanishi. Yuridik shaxslar er solig'ini to'lovchilar sifatida. Er solig'i ob'ekti. Er solig'i stavkalari va uni hududiy tabaqalashtirish asoslari. *Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari va uning guruhlanishi. Er solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Qishloq xo'jalik korxonalarini uchun yagona er solig'ini joriy etishning zaruriyati va ijtimoiy-iqtisodiy sabablari va.*

Er solig'ini hisoblash va to'lash tartibi. Hisoblangan soliq summasini buxgalteriya schyotlarida aks ettirish tartibi. Er solig'ining asosiy muammolari.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'i

Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ining iqtisodiy mohiyati. *Er solig'ini to'lovchilari va ularning guruhlanishi. Er solig'ining ob'ekti va uni aniqlash tartibi.* Er solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar. Imtiyozlarning paydo bo'lishi va bekor qilinishini hisobga olish tartibi. Er solig'ining hisoblanishi. Er solig'ini byudjetga undirish tartibi. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishdagi o'xshashlik va farqlar. Jismoniy shaxslardan er solig'ini undirishdagi muammolar va ularni hal qilish tartibi.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati. Jismoniy shaxslar daromadlarining tarkibi. Soliq to'lovchilari. Soliq ob'ektini aniqlash hususiyatlari. Norezident jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. *Soliq stavkalari. Soliqni*

hisoblash va byudjetga undirish tartibi. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish. Deklaratsiya tushunchasi va uning turlari. Deklaratsiyani to'ldirish tartibi va topshirish muddati.

Infratuzilmani rivojlantirish solig'i

Infratuzilmani rivojlantirish solig'ining iqtisodiy mohiyati. *Korxonalar ixtiyoridagi ijtimoiy soha ob'ektlarini bosqichma-bosqich davlat tasarrufiga o'tkazish. Soliq to'lovchilari. Soliq ob'ekti. Soliq bo'yicha berilgan imtiyozlar. Soliqni hisoblash usullari va byudjetga to'lash tartibi. Infratuzilmani rivojlantirish solig'idagi asosiy muammolar.*

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati va uni joriy etish sabablari. Soliq ob'ekti va uni aniqlash tartibi. Soliq stavkalari va uni tabaqalashtirish mezonlari. *Soliqni hisoblash tartibi. Hisoblangan soliqni byudjetga to'lash tartibi va buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq mexanizmining muammolari.*

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq

Er osti boyliklardan foydalanishni soliqqa tortish zarurligi va sabablari. *Soliq to'lovchilari. Soliq ob'ekti va uni aniqlash tartibi. Soliq imtiyozlari. Soliq stavkalari va uning tabaqalanish asoslari. Soliqni byudjetga o'tkazish tartibi. Soliqni byudjetga o'tkazish muddatlari va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq mexanizmidagi muammolar.*

Ekologiya solig'i

Ekologiya solig'ining iqtisodiy mohiyati. *Ekologiya solig'ini soliq tizimiga joriy etish sabablari. Soliq to'lovchilari. Soliq ob'ekti. Soliq stavkasi. Soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi hamda muddatlari. Ekologiya solig'i mexanizmidagi mavjud muammolar.*

Boshqa soliqlar va soliqsiz to'lovlar

Reklama solig'ining iqtisodiy mohiyati. Reklama solig'ining to'lovchilari. Reklama solig'ining ob'ekti. Reklama solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

Bojxona bojining iqtisodiy mohiyati. *Bojxona deklaratsiyasi va uni to'ldirish tartibi. Bojxona bojidan ozod qilinadigan tovar (xizmat, ish) lar. Bojxona boji stavkalari. Bojxona bojini hisoblash va byudjetga undirish tartibi. Bojxona to'lovlarini to'lash muddatini uzaytirish sharti.*

Avtotransport vositalarini qayta sotganlik uchun, ortiqcha tayyor mahsulot qoldig'i uchun soliq va boshqa soliqsiz to'lovlarning o'ziga xos xususiyatlari.

3. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING MAZMUNI

"Soliqlar va soliqqa tortish" fanining predmeti va o'rganish usullari

"Soliqlar va soliqqa tortish" fanining maqsadi, vazifalari hamda harakatda bo'lgan soliqqa tortish tizimi. Fanning asosiy yo'nalishi, ya'ni amaliyotdagi soliq turlari va ularning o'ziga xos jihatlari.

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliq va soliqsiz to'lovlariga umumiy tavsifnoma

Respublikamiz soliqqa tortish tizimida amalda bo'lgan solikli va soliqsiz to'lovlar. Yuridik shaxslarning solikli va soliqsiz to'lovlari. Jismoniy shaxslarning solikli va soliqsiz to'lovlari.

Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimining tamoyillari

Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxs tushunchasi. Soliq to'lovchilarni aniqlash asoslari*. Hisoblangan soliq va yig'imlar uchun yuridik shaxslarning javobgarligi va mas'uliyati. Soliqqa tortish tizimida jismoniy shaxslarga qo'llaniladigan tamoyillar*. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimidagi tamoyillarning o'xshash va farqli jihatlari.

Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda (daromad) solig'i

Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda (daromad) solig'inig iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va byudjet daromadlarida tutgan o'rni*.

Soliqlarni to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti, soliq stavkalari va soliqqa tortish bazasini shakllantirish, soliqni hisoblash va to'lash muddatlari.

Soddalashtirilgan soliq tizimi (yagona soliq)

Soddalashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyati. Yagona soliqning soliq tizimiga tadbiiq etilishi va amal qilish jarayoni. Soliqni to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti, stavkalari, soliqni hisoblash uslubiyati.

Yalpi tushumdan va belgilangan daromaddan yagona soliq

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning xususiyatlari. Yalpi tushumdan yagona soliqning soliq tizimiga joriy etilishi va zarurligi*. Belgilangan

daromaddan yagona soliqni sub'ektlari tarkibi, soliq ob'ektini aniqlash uslubiyati*. Soliq stavkalari hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibi.

Qo'shilgan qiymat solig'i

Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq tizimiga joriy qilinishi hamda iqtisodiy ahamiyati. Qo'shilgan qiymat solig'ining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. Soliq to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti, soliq stavkalari, soliq bo'yicha imtiyozlar*. Soliqni hisoblash va byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlash usuli. Schyot fakturani to'ldirish tartibi va soliqning buxgalteriya hisobida rasmiylashtirish.

Aktsiz solig'i

Aktsiz solig'ining mohiyati va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar uchun aktsiz solig'i. Soliqni to'lovchilar tarkibi, soliqqa tortish ob'ekti va hisoblash tartibi*. Aktsiz solig'ini hisobga olish va buxgalteriyada rasmiylashtirish.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ini joriy etish sabablari. Mol-mulk solig'ining shakllanish jarayoni va tarixiy bosqichlari. Mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati. Soliqqa tortish maqsadida mol-mulk tushunchasi. Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini to'lovchilari sifatida. Yuridik shaxslardan mol-mulk solig'ini undirishda mol-mulkning yillik o'rtacha qoldiq qiymatini aniqlash tartibi*. Korxonalarda mol-mulkning qayta baholanishi va uning soliq ob'ektiga ta'siri. Mol-mulk solig'i stavkasi. Eksportni rag'batlantirishda mol-mulk solig'i stavkasini tabaqalanishi*. O'z vaqtida o'rnatilmagan asosiy vositalar uchun oshirilgan soliq stavkasi va uni qo'llash tartibi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i

Jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining to'lovchilari. Jismoniy shaxslar mol-mulkining turlari va soliq ob'ekti. Jismoniy shaxslar mol-mulkining qayta baholanishi*. Mol-mulk solig'ining stavkalari va uning tabaqalashtirilishi. Mol-mulk solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar. Mol-mulk turlari bo'yicha soliq hisoblashning xususiyatlari. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirish tartibi*. Yuridik va jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirilishining farqlari. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'i undirishning asosiy muammolari.

Yuridik shaxslardan undiriladigan er solig'i

Soliq tizimiga er solig'ini joriy etishning asosiy sabablari. Er solig'ining iqtisodiy mohiyati va uning tarixiy shakllanishi. Yuridik shaxslar er solig'ining to'lovchilari sifatida. Er solig'i ob'ekti. Er solig'i stavkalari va uning hududiy tabaqalashtirish asoslari*. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari va uning guruhlanishi. Er solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi. Qishloq xo'jalik korxonalar uchun yagona er solig'ini joriy etishning zaruriyati va ijtimoiy-iqtisodiy sabablari.

Er solig'ini hisoblash va to'lash tartibi*. Hisoblangan soliq summasini buxgalteriya schyotlarida aks ettirish tartibi. Er solig'ining asosiy muammolari.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'i

Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ining iqtisodiy mohiyati. Er solig'ini to'lovchilari va ularning guruhlanishi. Er solig'ining ob'ekti va uni aniqlash tartibi. Er solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar*. Imtiyozlarning paydo bo'lishi va bekor qilinishini hisobga olish tartibi. Er solig'ining hisoblanishi. Er solig'ini byudjetga undirish tartibi. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishdagi o'xshashlik va farqlar*. Jismoniy shaxslardan er solig'ini undirishdagi muammolar va ularni hal etish tartibi.

Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq

Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati. Jismoniy shaxslar daromadlarining tarkibi. Soliq to'lovchilari. Soliq ob'ektini aniqlash xususiyatlari*. Norezident jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Soliq stavkalari. Soliqni hisoblash va byudjetga undirish tartibi. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish. Deklaratsiya tushunchasi va uning turlari. Deklaratsiyani to'ldirish tartibi va topshirish muddati.

Infratuzilmani rivojlantirish solig'i

Infratuzilmani rivojlantirish solig'ining iqtisodiy mohiyati. Korxonalar ixtiyoridagi ijtimoiy soha ob'ektlarini bosqichma-bosqich davlat tasarrufiga o'tkazish*. Soliq to'lovchilari. Soliq ob'ekti. Soliq bo'yicha berilgan imtiyozlar. Soliqni hisoblash usullari va byudjetga to'lash tartibi. Infratuzilmani rivojlantirish solig'idagi asosiy muammolar*.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati va uni joriy etish sabablari. Soliq ob'ekti va uni aniqlash tartibi. Soliq stavkalari va uni tabaqalashtirish mezonlari*. Soliqni hisoblash tartibi. Hisoblangan soliqni byudjetga to'lash tartibi va buxgalteriya schyotlarida aks ettirilishi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq mexanizmining muammolari*.

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq

Er osti boyliklaridan foydalanishni soliqqa tortish zaruriyati va sabablari. Soliq to'lovchilari. Soliq ob'ekti va uni aniqlash tartibi. Soliq imtiyozlari. Soliq stavkalari va uning tabaqalanish asoslari*. Soliqni byudjetga o'tkazish tartibi. Er osti boyliklardan foydalanganlik uchun soliq mexanizmidagi muammolar.

Ekologiya solig'i

Ekologiya solig'ining iqtisodiy mohiyati. Ekologiya solig'ini soliq tizimiga joriy etish sabablari*. Soliq to'lovchilari. Soliq stavkasi. Soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi.

Boshqa soliqlar va soliqsiz to'lovlar

Reklama solig'ining iqtisodiy mohiyati. Reklama solig'ining to'lovchilari. Reklama solig'ining ob'ekti. Reklama solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

Bojxona bojining iqtisodiy mohiyati. Bojxona deklaratsiyasi va uni to'ldirish tartibi. Bojxona bojidan ozod qilinadigan tovar (xizmat, ish) lar*. Bojxona boji stavkalari. Bojxona bojini hisoblash va byudjetga undirish tartibi. Bojxona to'lovlarini to'lash muddatini uzaytirish sharti.

Avtotransport vositalarini qayta sotganlik uchun soliq, ortiqcha tayyor mahsulot qoldig'i uchun soliq va boshqa soliqsiz to'lovlarning o'ziga xos xususiyatlari*.

Kurs ishi mavzulari

1. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi va uni takomillashtirish yo'llari.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tizimi va soliqlarning byudjet daromadlari tarkibida tutgan o'rni.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinish sabablari va uning soliq qonunchiligidagi ahamiyati.
4. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'ini hisoblash va byudjetga undirishni takomillashtirish yo'llari.
5. Soliqlarning davlat moliya resurslarini shakllantirishda tutgan o'rni.

6. O'zbekistonda mol-mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari va uni takomillashtirish yo'llari.
7. Davlat byudjetini tashkil qilishda soliqlarning ahamiyati.
8. O'zbekiston mahalliy soliqlari va ularning xorijiy mamlakatlar mahalliy soliqlari bilan solishtirma tahlili.
9. Soliq mexanizmi va uni takomillashtirish yo'llari.
10. Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'g'ri soliqlarning respublika soliq tizimida tutgan o'rni va ahamiyati.
11. Davlat byudjeti daromadlari va ularning byudjetlar o'rtasida taqsimlanish tamoyillari.
12. O'zbekistonda xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni takomillashtirish masalalari.
13. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Soliq idoralarning nazorat qilish usullari.
14. Qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni takomillashtirish yo'llari.
15. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadlarini soliqqa tortish tartiblari.
16. Mahalliy soliqlar va yig'implarni takomillashtirish masalalari.
17. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqning xususiyatlari va ularni takomillashtirish yo'llari.
18. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'ini undirish tartiblarini takomillashtirish masalalari.
19. Er ostidan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliq stavkalarini takomillashtirish masalalari.
20. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirish tartibini takomillashtirish yo'llari.
21. Aktsiz solig'ini hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibini takomillashtirish masalalari.
22. Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibini takomillashtirish yo'llari.
23. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va hisob-kitoblarni taqdim qilish tartibini takomillashtirish.
24. Kichik korxonalarini rivojlantirishda yagona soliqning ahamiyati.
25. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va ularning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri.
26. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.

27. Korxonalarining solikli va soliqsiz to'lovlari: hisoblash va to'lash tartibi.
28. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetga undirish tartiblari.
29. Tijorat banklarini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari.
30. Moliyaviy jazo choralarini qo'llash tartiblarini takomillashtirish masalalari.
31. Ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirishda to'g'ri soliqlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanishni takomillashtirish yo'llari.
32. Chet el sarmoyalarini ishlab chiqarishga jalb qilishda soliqlarning tutgan o'rni.

4. INFORMATSION-TEXNIK VOSITALAR

Bu fanni o'qitish jarayonida quyidagi zamonaviy texnik vositalardan, foydalanish belgilangan.

1. Kompyuter;
2. Audio va video jihozlar;
3. Dioproektor;
4. Kodaskop;
5. Internet tarmog'i saytlari:

- E-mail: mail@finstat.ru
<http://www.finstat.ru/>
- E-mail: valeo@etel.ru
- <http://www.alpbook.ru/>
E-mail: alpina@alp.ru

5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB va OB turlari uchun belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning) 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foiz miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaB "yozma ish" shaklida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalarga asoslangan yozma ishni usulini o'tkazish tartibi "Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida" "yozma ish" usulini tadbiiq etish bo'yicha namunaviy Nizom bilan belgilanadi. Semestr (o'quv yili) davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal, 55 va unda yuqori foiz miqdorida ball to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55 foizidan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) hisoblanadi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -T.: Adolat, 2002.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. // Xalq so'zi, 29 avgust 1997.
4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida, -T.: O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
6. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari, -T.: O'zbekiston, 1998.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1998.
9. Alimboev S. Soliqlar. O'quv qullanma. - T., 2000.
10. Beganov V. va boshqalar Moliya siyosati, soliqlar va soliq solish. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998.
11. Gataulin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish, -T.: 1996.
12. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Soliq huquqi -T.: Moliya, 2000.
13. Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Akademiya, 2002.
14. Nalogi i nalogooblajenie v voprosax i otvetax: chast 1. T.: GNK, 1998.
15. Nalogi i nalogooblajenie v Rossiyskoy Federatsii (uchebnik dlya VUZov). - M.: Knijniy mir, 1999.
16. Nalogi. Ucheb. pos. (Pod.red. D.G. Chernika). - M.: Finansi i statistika, 1998.
17. Finansi. (Pod. red. Drobozinoy L.A.) -M.: Yuniti, 2000.
18. Xvan L.B. Soliq huquqi. -T.: Konsaudit inform, 2001.
19. Yahyoev Q. O'zbekistonda soliq tizimi -T.: Mehnat, 1998.
20. Yahyoev Q. O'zbekistonning solikli va soliqsiz to'lovlari. -T.: 1999.
21. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti -T.: G'. G'ulom, 2000.
22. Chernik D.G. Nalogi v rinochnoy ekonomike. -M.: Yuniti, 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Almardonov. M.I., Xudoyqulov. S.K., Daromad (foyda)dan olinadigan soliqlar. O'quv qo'llanma. –T.: TMI, 2002.
2. Almardonov. M.I., Omonov A. Soliqlarni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. –T.: TMI, 2002.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining 2003 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" 2002 yil 30 dekabrda 435-sonli Qarori.
4. Buxgalterskiy uchetskiy i nalogooblojenie v byudjetnix organizatsiyax. –M.: Izdatelskiy dom gerda, 2000.
5. Bogataya I., Korolyova N., Kuznetsova L. "Kak minimizirovat vashi nalogi". - M.: Finiks, 2001.
6. Karp M. Nalogoviy menejment. Ucheb. dlya vuzov. – M.: YuNITI-DANA, 2001.
7. Regionalnie i mestnie nalogi i sbori. –M.: Berator-press, 2002.
8. Kochetkov A. I. Analiz nalogovix oshibok Ucheb. pos. –M.: Delo i servis, 2002.
9. Medvedev. A. Optimizatsiya nalogoblojeniya v 2002 g. –M.: MTsFER, 2002.
10. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. Moliya va narxlar ilmiy tadqiqot instituti. 2002 y. 12 to'plam.
11. Soliq to'lovchi jurnali. 2002-2003 yillar.
12. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali. 2002-2003 yillar.
13. "Soliqlar va bojxona xabarlari" gazetasi. 2002-2003 yillar.